

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Jo'rayeva	
Firoqiy va Partav	314
Z.Teshabojeva	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati	318
N.J.Abdusamatova	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash	322
Sh.A.Ermatova	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish	326
M.J.Jurabojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi	331
Sh.M.Usanov	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rnini.....	334
V.A.Giyosova	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari	339
Г.Р.Абдуллаев	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
J.Sh.Amayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
M.T.Voxidova	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari	350
N.M.Xodjibolajeva	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari	354
Sh.M.Muxamedov	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
S.I.Raxmatullajeva	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi	371
M.A.Junaydulajev	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari	377
M.M.Temirova	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari	382
M.U.Kurbanov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv	387
M.O.Batirkhanova	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	391
M.C.Ganieva	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
I.A.Ismoilov	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida	401
D.G'.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi	405
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir	408
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari	416
G'.M.Alamov	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rnini.....	420

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KREATIVLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH
MASALASIGA DOIR****К ВОПРОСУ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ
ON THE ISSUE OF DEVELOPING CREATIVITY SKILLS IN FUTURE EDUCATORS****Abduraxmonov Dilmurod Akramaliyevich¹**¹Qo'qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Ilmiy bilimlarning bugungi kundagi rivoji, kreativlikning shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta'siri ushbu masalani ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o'rganishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ta'limga kreativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning raqobatbardoshligini oshirish, yetuk pedagog kadrlar sifatida tarbiyalashga kreativ yondashuvlar orqali ta'lim jarayoniga ta'sir etish hamda innovatsion metodik ishlanmalardan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarining ijodkorligi, o'z ustida mustaqil qarorlar qabul qilishi, tashabbuskorligi, vatanparvarligi, liderlik sifatlarini rivojlantirishda interaktiv-interfaol texnologiyalarni takomillashtirish to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

Сегодняшнее развитие научных знаний, влияние творчества на развитие личности, общества и государства требуют глубокого изучения этого вопроса с научно-педагогической точки зрения. С этой точки зрения в данной статье на основе творческого подхода к образованию в образовательных и научно-исследовательских учреждениях повышение конкурентоспособности будущих педагогов, влияние на образовательный процесс через творческие подходы к обучению зрелых педагогов, использование инновационных методических разработок, креативность, самостоятельность принятия решений, инициативность, Представлены мнения по совершенствованию интерактивных технологий в развитии патриотизма и лидерских качеств.

Abstract

Today's development of scientific knowledge, the impact of creativity on the development of the individual, society and the state requires a deep study of this issue from a scientific and pedagogical point of view. From this point of view, in this article, on the basis of a creative approach to education in educational and scientific research institutions, increasing the competitiveness of future pedagogues, influencing the educational process through creative approaches to educating mature pedagogues, and using innovative methodical developments, creativity, independent decision-making, initiative, Opinions on the improvement of interactive technologies in the development of patriotism and leadership qualities are presented.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativlikni rivojlantirish, kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar, kreativ potentsial, pedagogik kreativlik, pedagogning kreativ potentsiali, kreativ potentsialning tarkibiy asoslari va tamoyillari, pedagogning kreativ potentsialini aniqlovchi mezonlar.

Ключевые слова: творчество, развитие творческих способностей, факторы, препятствующие развитию творческих способностей, творческий потенциал, педагогическое творчество, творческий потенциал педагога, структурные основы и принципы творческого потенциала, критерии, определяющие творческий потенциал педагога.

Key words: creativity, development of creativity, factors hindering the development of creativity, creative potential, pedagogical creativity, creative potential of a pedagogue, structural bases and principles of creative potential, criteria determining the creative potential of a pedagogue.

KIRISH

O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida islohotlar jarayonida har bir soha va yangilanayotgan tuzilmaga kreativ yondashish, ijodiylik asosida modernizatsiya ishlarini olib borish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Chunki yangilanayotgan jamiyat uchun kreativlik eng qimmatli xususiyat bo'lib xizmat qiladi. Shu bois insonlarda kreativlik bilan bog'liq sifatlarni shakllantirish orqali jamiyatni iqtisodiy barqarorligini, tinchligi va farovonligini ta'minlash zarurati ortib bormoqda. Buning uchun "yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni ish bilan ta'minlash, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun sharoit yaratish, qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarish" bilan birga bu ishlar uchun hukumat tomonidan munosib shart-sharoit yaratish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi[2:77].

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi say'i- harakatlaridan biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlarini, har tomonlama

rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, ko'nikma, malaka va madaniyatga ega bo'lishlarini shakllantirishdan iborat. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika faniga "kreativlik" tushunchasini olib kirdi.

Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati – intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- hayol qila olish (fantaziya)[8:446].

Kreativlik so'nggi yillarda talim-tarbiya jarayonlarida ma'lum darajada qo'llanilmoqda. Bu tushunchaning mazmun va ma'nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tatqiqotlar olib borilgan.

Kreativlik – shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi. Atrofga nazar solsangiz inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual olam, internet va shu kabilar. Bularning barchasi inson tafakkuri mahsulidir. Mana shunday ijodiy tafakkurni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonidan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta'limi, oliy ta'lim xodimlari bilan bo'lgan muloqotda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilishi talab etiladigan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, "... bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning obro'sini ko'tarish, shu bilan bir qatorda, bugun o'qituvchilarning o'zlari ham ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim", degan bir qator fikrlarni bildirib o'tdi[1]. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich: "men Yangi O'zbekistonni – obod va farovon, demokratik mamlakatni, Uchinchi Renesansni barpo etishda pedagoglar, professor-o'qituvchilar, ijodkor ziyolilarni eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Ularning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni Prezident sifatida o'z burchim, deb hisoblayman" degan edilar[3:236]. Shuningdek, yurtboshimiz 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida ham jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozimligini, pedagoglarimiz o'qituvchilarga sifatli ta'lim berish va o'z ustida ishlashdan boshqa narsa haqida o'ylamasligi uchun davlat barcha sharoitlarni yaratib berishi zarurligini, shu bois o'qituvchi, murabbiy va metodistlar mehnatiga munosib haq to'lash bo'yicha boshlagan ishlar kelgusi yillarda ham davom ettirilishini aytib o'tgan edilar[4]. Zero, sharqona qarashlarimizda ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu esa bugungi kun o'qituvchisidan katta mas'uliyatni talab qiladi[9:62]. Darhaqiqat, hozirgi kunda tarbiya jarayoni dunyo miqyosida global muammoga aylanib bormoqda. O'tgan asrda yashagan ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytgan: "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" [5:11] iborasi ayni kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Ilmiy bilimlarning bugungi kundagi rivoji, kreativlikning shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta'siri ushbu masalani ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o'rganishni talab etmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligini ilmiy ishlarda ham ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ta'limga kreativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning raqobatbardoshligini oshirish, yetuk pedagog kadrlar sifatida tarbiyalashga kreativ yondashuvlar orqali ta'lim jarayoniga ta'sir etish hamda innovatsion metodik ishlanmalardan

foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarining ijodkorligi, o'z ustida mustaqil qarorlar qabul qilishi, tashabbuskorligi, vatanparvarligi, liderlik sifatlarini rivojlantirishda interaktiv-interfaol texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ta'lim muassasalarida o'qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi tadqiqot ishimiz mavzusi dolzarbligining yana bir ko'rinshi hisoblanadi. Vaholanki, bu muammo bugungi kunga qadar ko'plab xorijiy mamlakatlarda turlicha tahlil etilgan va o'rganilgan. Masalan, N.N.Nechaev, Y.A.Ponomarev, B.M.Teplov, D.V.Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda o'rgangan bo'lsalar, N.A.Berdyaev, V.S.Bibler, V.N.Drujinin, P.A.Florenskiyalar kreativlikning ma'naviy, psixologik jihatlarini tahlil etgan.

Kreativ qobiliyatlarni shakllantirish masalasi E.De.Bono, P.Drapeau, J.P.Guilford, A.Maslow, S.A.Mednick, E.P.Torrance, X.E.Tryklarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Buni Bronson, Merriyman, Ken Robinson, E.Y.Artemyeva, A.Y.Agafonov, M.M.Baxtin, A.N.Leontyevlarning ilmiy ishlarda kreativlik shaxsning sifati deya talqin etilib, kreativlikni tashxis qilish masalalari tahlil qilingan.

Respublikamizda so'nggi yillarda bo'lajak o'qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. "Oliy ta'lim qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon yetishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi ushun zarur shart-sharoit yaratish" vazifasi ustuvor etib belgilandi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari kengayadi.

Kreativlikni tashxis qilish metodlarini ishlab chiqish ilm-fan sohasidagi asosiy muammolarning biri hisoblanadi. XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida ham ushbu termin ishlatila boshladi. Ayniqsa, pedagogika fanining alohida va yosh tarmog'i sifatida shakllana boshlagan "Innovatsion pedagogika"da ushbu terminga bod-bod duch kelmoqdamiz. B.S.Abdullayeva, R.B.Abdurahmonova, A.R.Aripdjanova, Y.M.Asadov, N.N.Azizxodjayeva, U.Sh.Begimqulov, A.A.Beknazarov, L.S.Beknazarova, G.T.Boymurodova, B.R.Djo'rayeva, G.N.Ibragimova, B.B.Ma'murov, R.Y.Musinova, N.A.Muslimov, Sh.X.Pozilovalarning ilmiy ishlarida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik madaniyat va ijodkorliklarini shakllantirishga oid ilmiy ishlar tadqiq qilingan. O'.Q.Tolipov, Sh.Sharipov, J.G'.Yo'ldoshev, R.A.Mavlanova singari ko'plab pedagog olimlarimizning ilmiy ishlarida kreativlik – bu innovatsion faoliyatning alohida ko'rsatkichi sifatida tahlil etilgan.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

"Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziqvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bolishiga e'tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar orasida mutaxassislarning kasbiy va kreativ kompetentligini oshirish uchun qator chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Pedagog shaxsiga qo'yiladigan talab – eng avvalo o'z ustida izlanishlar olib borishidir. Shunday ekan, ta'lim tizimida eng muhim ehtiyoj ta'lim tashkiloti mutaxassislarning kasbiy yetukligi bilan birga kreativ kompetentligi hamdir[12:540-541].

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim amerikalik tilshunos N.Xomskiy (1965-yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan "kompetensiya" atamasining umumiy ma'nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha Bern shahrida bo'lib o'tgan simpoziumda (1996-yil)

“kompetensiya” tushunchasi “o’quv”, “kompetentlik”, “qobiliyat”, “mahorat” singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta’lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999-yil) ta’lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondashuv e’tirof etildi [13:67].

G.V.Nikitinaning fikricha, kompetentliklar tasnifida bir nechta asoslar mavjud:

– insonning umumiy kompetentligi (matematik, kommunikativ, informatsion, ijtimoiy, axloqiy va h.z.);

– faoliyat turlari bo’yicha kompetentlik (mehnat, o’quv, o’yin, kasbiy va boshqalar);

– faoliyat yo’nalgan obyektlar bo’yicha kompetentlik (inson-inson, inson-texnika, inson-tabiat, inson-badiiy timsol va h.z.);

– ijtimoiy hayot sohalari bo’yicha kompetentlik (maishiy, fuqaroviy, madaniy va boshqalar);

– ijtimoiy bilimlar tarmoqlari bo’yicha kompetentlik (matematikada, gumanitar fanlarda);

– ishlab chiqarish tarmoqlari bo’yicha kompetentlik (transport, aloqa, mudofaa va boshqalar);

– qobiliyatlar bo’yicha kompetentlik (pedagogika, psixologiya, ijtimoiy, ijodiy, texnik va boshqalar).

Zero, yuqorida aytilgan kompetentlik yo’nalishlari shaxs umummadaniy kompetentligining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Pedagogning kasbiy kompetentligi tasnifi quyidagilarni o’z ichiga oladi:

– pedagogning ish sohasi bo’yicha kompetentligi – uzluksiz ta’lim tizimini o’z ichiga oladi;

– ixtisoslik bo’yicha kompetentligi – o’qituvchi, tarbiyachi, psixolog, defektolog, kasb ta’limi o’qituvchisi, ishlab chiqarish ustasi;

– pedagogning faoliyati yo’nalgan obyekt bo’yicha kompetentligi – talabalar, ota-onalar, sinf jamoasi, sotsium va boshqalar;

– pedagogning faoliyati turi bo’yicha kompetentligi motivatsion, gnostik, metodologik, metodik, informatsion, kommunikativ, refleksiv, prognostik, konstruktiv, tadqiqot, texnologik, korreksion va boshqalar [11:353-354].

A.V.Xutorskiy o’qituvchining quyidagi kompetensiyalarini tavsiflaydi:

1. Dunyoqarash asosida, ya’ni qadriyat va o’zini anglash – o’qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog’liq ravishda namoyon bo’ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ko’ra oladi va tushunadi, bunga o’zini yo’naltiradi, pedagog sifatida o’z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya o’qituvchining o’quv va boshqa faoliyatlaridagi o’z-o’zini anglash mexanizmini ta’minlaydi.

2. Umummadaniy – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo’lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlariga hurmat; ijtimoiy ko’nimalarga ega bo’lish. Ilm-fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini anglay olish va talaba yoshlarga tushuntira olish.

3. O’quv va bilish jarayoni – o’qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi, o’quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko’nikmalarini tahlil qila olishi.

4. Ma’lumotga ega bo’lish – pedagogik faoliyat va o’z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko’nikmasi.

5. Muloqotchanlik – til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo’lishi, jamoada o’ziga xos o’rinda turishi.

6. Ijtimoiy – foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas’uliyat, jamiyat rivojidadagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko’nikmalarga ega bo’lish.

7. O’z ustida ishlashi – jismoniy, ma’naviy, intellektual jihatdan o’z-turli axborot manbalari, shu jumladan, ta’lim muassasasidan tashqaridagi axborot manbalaridan bilimlarni mustaqil o’zlashtirishga asoslangan bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar:

– ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (fuqaro, saylovchi, ijtimoiy guruh, jamoa a’zosi rolini bajarish);

– mehnat faoliyati sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan, mehnat bozorida holatni tahlil etish va undan foydalanish, o’zining kasbiy imkoniyatlarini, o’zini o’zi uyushtirish ko’nikmalarini baholash va takomillashtirish);

– maishiy sohadagi kompetensiyalar (shu jumladan, oilaviy hayot aspektlarini, salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ham qamrab oladi);

– madaniy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan, shaxsning ma’naviy va madaniy jihatdan boyishi uchun vaqtdan unumli foydalanish) [15:59].

O'qituvchi kompetensiyasi – uning nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakasi, dunyoqarashi, e'tiqodi va barcha shaxsiy individual, ijtimoiy-psixologik sifatlarining namoyon bo'lishidir. Ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri bu – o'qituvchining o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi. Bular: ilmiy bilish; gnoseologik bilish; pedagogik faoliyatni epchillik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish; har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy-kreativ yondashish; ta'limiy, tarbiyaviy ta'sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish; o'zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini, o'rganish va ichki psixologik zaxirasidan samarali foydalanish orqali o'zini muttasil rivojlantirish; jamiyat va insonlarga, tabiatga, borliqqa ijobiy emotsional munosabatda bo'lish ijobiy pozitiv fikrlashga o'tish tajribasidan iborat.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;
- 3) ijodiy-seminar (konstruktiv) malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalari;
- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- 6) tashkilotchilik malakalari;
- 7) izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar;
- 8) texnik-texnologik malakalar.

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

E.P. Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va seminar harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik[14].

Kreativlik uchun quyidagilar muhim bo'lib hisoblanadi: pedagogik masalalarning ko'p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish, o'z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish xohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonch. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi".

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarining mutaxassisleri kabi o'qituvchilar ham o'zlarida kreativlik sifatleri mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o'tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o'ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo'yicha baholash imkoniyatini yaratadi.

Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi.

Pedagog qanchalik kreativ bo'lsa, o'quv auditoriyasi va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladigan xonani talabalar bilan hamkorlikda, ularning ijodiy imkoniyatlari, kreativlik layoqatlariga tayangan holda jihozlashga muvaffaq bo'ladi. Natijada ham talabalarning kreativ faolligi oshadi, ham mashg'ulot, tadbirning ta'sirchanligi kuchayadi[10:153].

Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, talabalar ham shunday bo'la oladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Mashg'ulotlarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi to'rtta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi:

- 1) ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
- 2) talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish;
- 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;
- 4) kutiladigan natija[7].

Talabalarning darslarda mustaqil fikrlashlariga yetarli darajada e'tibor berilmayotganligi, ularning passiv tinglovchiga aylanib qolayotganliklari, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yo'lga qo'yilmaganligi, sinfda, iliq ruhiy iqlimning mavjud emasligi, ular qobiliyatini to'la namoyon qilishga to'sqinlik qilmoqda. Bizning fikrimizcha, bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalarning mustaqilligi, tashabbuskorligi, ijodkorligi va qobiliyatlariga yetarli darajada e'tibor qilinmayapti. talaba ta'limda ijrochi, o'qituvchi topshiriqlarini, hohishlari-istaklarini bajaruvchi vazifasida ishtirok etayapti.

Talabalarni kreativ faoliyat asosida ijodiy hamkorlikka tayyorlashda ularning umummadaniy salohiyati, mutaxassislik bilimlari hamda shaxsiy fazilatlarini shakllanishida uyg'unlikka erishish talab qilinadi. Shu bois oliy ta'lim o'quv rejalarida ko'zda tutilgan barcha bilimlarga oid fanlarning integratsiyalashuv zarurati yuzaga keladi. Demak, talabalarda kreativlik va u asosida ijodiy hamkorlikni rivojlantirish fanlararo aloqalarni mustahkamlashga asoslanadi. Talabalarda hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning interfaol usullaridan foydalanishning ahamiyati kattadir. Binobarin, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamkorlik pedagogikasi, kichik guruhlarda ishlash usullari ta'sirida yaxshi samara berishi mumkin. Ta'lim texnologiyalari samaradorligini yanada oshirishda zamonaviy axborot kommunikatsiyalarini keng joriy etish yaxshi natija beradi.

Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o'ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;
- zakovatli bo'lish.

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish[6:650-651].

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib,

rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

- Pedagog o'zida quyidagi kreativlik malakalarini namoyon eta oladi:
- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar – analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va boshqalarni qo'llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.
- Ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirish ham pedagogning kreativlik potensialini rivojlantiradi, natijada pedagog:
- ijodiy fikrlashga odatlanadi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari, ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishlarni olib borishlari kerak bo'ladi[6:653].

XULOSA

Jamiyatimizning yangi rivojlanish bosqichida yuz berayotgan tub o'zgarishlar ta'sirida ta'lim tizimini amaliy ehtiyojlarni yanada izchil ta'minlavchi sohaga aylantirishda bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy faoliyat jarayonida raqobatbardoshligini oshirishda amaldagi o'quv rejalariga tanlov asosidagi fanlarni kiritilganligi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, o'zgaruvchin bozor sharoitida bo'lajak pedagogning yashovchanligini ta'minlash yo'llaridan biri sifatida ularning kasbiy faoliyati uchun zaruriy bo'lgan malakaviy tayyorgarlikni aniqlashda kreativlikni oshirish yoki uning natijalarini tatbiq etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni ham inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday maqsadni izchil ravishda amalga oshirish uchun barcha ta'lim yo'nalishlarining yuqori bosqichlarida tanlov asosidagi fanlar qatorida "Kreativlik va sohaga kreativ yondashuv" fanini o'qitishni joriy etish maqsadga muvofiq. Mazkur fanni o'qitishda quyidagi ta'limiy maqsadlar amalga oshiriladi:

- talabalarda kreativ hamkorlik ko'nikmalarini hayotiy zaruratlar va bozor sharoitida yuzaga keladigan raqobat jarayonida yashovchanlikni ta'minlash usuli sifatidagi tavsifi, uning turlariva ta'minlash uchun zarur resurslar, malakaviy tayyorgarlik darajasi haqidagi nazariy bilimlarni singdirish;

- talabalar uchun kreativ hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning strategiyasini aniqlash, optimal va operativ vazifalarni yaxlit strategiya asosida hal qilish, uni amalga oshirish, yaratilgan yangilikni joriy etish uchun zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish;

- o'quv rejasida ko'zda tutilagn auditoriya, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ishlar, ilmiy-tadqiqot ishlari, malakaviy amaliyot doirasida talabalardaijodiy hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish, oliy o'quv yurtida, boshqa korxon va muassasalarda yuritilayotgan hamkorlik ishlarida ishtirok etishlarini ta'minlash.

Talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish lozim. Shuningdek, talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak pedagoglarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan, ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning zarur ijtimoiy talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki ijtimoiy hamkorlik mutaxassisning ijtimoiy ehtiyojni anglab yetishi va unga kerakli yechimni berishiga qaratilgan faoliyatdir. Shu bois oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirishning samarador pedagogik modeli va shart-sharoitlarini yaratishga doir tadqiqotlarni olib borish, bu orqali aniq natijaga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur. <https://uza.uz/uz/posts/23-08-2019>.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. –Toshkent:O'zbekiston. 2020. – 456 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – 464 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 96 b.
6. Achilov N.N. Bo'lajak pedagoglarning kreativligini rivojlantirish usullari. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022. – B. 650-654. https://t.me/ares_uz
7. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
8. Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'nviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
10. Kreativ pedagogika asoslari. O'quv uslubiy majmua. – Toshkent, 2016. – 193 b.
11. Siddikov B., Abdullaev E. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations. Special Issue–10. 2021. – B. 353-360. <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
12. Xudoyberdiyeva F.G'. Tarbiyachining pedagogik faoliyatga kreativ yondashuvi. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 5 | 2022. – B. 540-547. https://t.me/ares_uz
13. Бубенов А.В. Коммуникационная культура: Философско-методологический анализ Электронный ресурс.: дис. канд. философ, наук. – М., 2006.
14. Тест креативности Торренса. Диагностика творческого мышления. <https://mindclubs.com/news/tpost/ms4myy4oj1>
15. Хуторской А. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированной парадигмы образования // Народное образование. 2003. – № 2. – С. 58–64